



MAKTAB DARSLIKLARIDA NAVOIY IJODINI O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xurramova Parizoda Yashin qizi¹

Turkiy tillar fakulteti talabalari.

Yusupova Marg'iyona Murtozo qizi²

Turkiy tillar fakulteti talabalari.

Berdirasulova Nargiza Parmonqul qizi³

Turkiy tillar fakulteti talabalari.

¹⁻²⁻³Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7031298>

ARTICLE INFO

Received: 22nd August 2022

Accepted: 25th August 2022

Online: 29th August 2022

KEY WORDS

Yangi O'zbekiston
strategiyasi, Navoiy ijodi,
solishtirma vazn,
kontekstual birlik, g'azal,
lug'at, Sab'ai Sayyor,
Xamsachilik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan darsliklarda o'z ifodasini topgan axborotlarning ifoda etilishi haqida so'z yuritilgan. Bundan atshqari maqolada maktab sinf darsliklarining ketma ket tarzda bosqichlarga ajratilib berilgan ekanligi va qolaversa, sinflar tarmog'ida solishtirma asosida ma'lumotlar berilgan.

Mamlakatimizda Mustaqillik yillaridanoq badiiy adabiyotga va qolaversa, mumtoz adabiyotimizning maktab o'quvchilari orasida targ'ib etilishida turli darajadagi ilmiy va nazariy ishlar keng miqyosda amalga oshirilib kishilik jamiyatida hazrati Navoiy shaxsiyatining o'rganilishi, u kishining ijod namunalari bilan yaqindan tanishish va ularning yosh avlodga tanishtirish bilan birga ular tarbiyasiga muvofiq tarzda dasturlashtirilgan ta'lim tizimining joriy etilishi ham o'ziga xos ahamiyatga molik vazifalardan biri bo'ldi.

Bugungi kunda Respublikamizning barcha hududlarida ta'lim olib kelyotgan talaba – yoshlar Nizomiddin Mir Alisherning ijodiy merosi bilan dasturlashtirilgan tizim asosida bilim olib kelyotgan ekanliklari ahamiyatlidir. Jumladan maktab sinf darsliklari orasida yettinchi sinf darsliklari ichida Navoiy ijojdiy merosini

o'quvchilarga o'rgatish borasida turli ma'lumotlikar bilan birga „Sab'ai Sayyor“ dostonining bayoniy tahlili ham ahamiyat kasb etadi. Bunda turli so'z va izofalarning ma'noviy qismlarini izohlashda lug'atlar tizimidan foydalanishda kitob mualliflari jonbozlik ko'rsatgan ekanliklari ma'lum. Misol tariqasida 2013 – yil 7- sinf adabiyot qayta ishlangan nashr mualliflari – Qozoqboy Yo'ldoshev, Begali Qosimov, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshebekovlar bu borada unumli faoliyat yuritib ushbu dasrliukda Navoiy ijodidan bahramand bo'luvchi yoshlarning dostonniong o'rganilish davomiyligida o'quvchilarga qiyinchiliklarni mahv qilishlarida dasturiy amal bo'lib xizmat qilgan.

„Bor ekandur Adanda javr fane,

Javr qilmoq fanida safshikan.

Ul minib zavraqi sabuksayre,

O'ylakim suvda sayr etar tayre” [1]



Bunda Adan – Arabistondagi kichik mamlakat nomi, Javr – jabr, azob, Fan – hunar, Safshikan – saflarni buzuvchi qahramon degan ma’nolarni anglatib kitobxonni teran fikrlashga chorlaydi.

Maktab o’quvchilari uchun tanlangan darsliklar orasida 2014- yil 8- sinf o’quvchilari uchun mo’ljallangan adabiyot darsligida Alisher Navoiy ijodini o’rganishning o’ziga xos usullarini muvofiq tarzda shakllantirishda yordam bergan adaabiyotshunos olimlardan Sobir Abdulla ham bu borada yetakchilik qilib kelyotgan ekanligi ham quvonarlidir.

Yosh tafovutlarini ham inobatga olgan holda nisbatan qolgan darsliklardan farqli ravishda 8 – sinf adabiyot darsligida Navoiy ijodining mufassil o’rganilgan ekanligi ham ma’lum. Bunda g’azal tahlillarining murakkablik darajasining orttirilgan bosqichi kishilik jamiyati va dabiyot muhkislarining e’tiborini tortish bilan bir qatorda axborot kommunikatsion tizimining murakkablashgan shaklini barqaror tarzda ifoda etib yaxlitlik planida namoyon bo’lishida dasturiy vosita bo’lib xizmat qiladi.

„Qaro kozum kel-u, mardumliq emdi fan qilg’il,

Qadding noholig’a jon gulshanin chaman qilg’il.

Takovaringg’a bag’ir qonidin hino bog’la, Itingg’a g’amzada jon rishtasin rasan qilg’il.

Firoq tog’ida topilsa, tufrog’im, ey charx, Xamir etib yana ul tog’da ko’hkan qilg’il”.

G’azal oshiq qalbining yetuklik va kamol timsoli bo’lmish komil insonga jo’shqin muhabbati ifodalaangan mashhur she’rlardan biri hisoblanadi. Lirik qahramon oshiq tarzida so’z boshlab, yoriga to’gridan – to’g’ri „qaro ko’zum” deya murojaat qiladi, undan kelib

odsamgarchilik „mardumliq” qilishini, yana ham aniqrog’i, oshiq ko’zi qorasida gavhar „mardum kebi” vatan tutishini so’raydi. [2]

Navoiy ijodiyotining maktab o’quvchilariga o’rgatish tizimida bir necha yillardan buyon faol tarzda faoliyat yuritib kelyotgan olimlarni bir necha toifalarga ajratish mumkin, ular quyidagilar :

- Najmiddin Komilov ijodiy faoliyati;
- Sobir Olim ijodiy faoliyati;
- Hayitmetov ijodiy faoliyati;
- Suyuma G’aniyeva ijodiy faoliyati
- Va boshqalar.

Navoiy ijodi ham maktab o’quvchilarining yosh toifalari o’sib borgani sari o’sib boorishda davom etadi. Boshqa maktab darsliklaridan farqli ravishda 9 – sinf o’quvchilariga mo’ljallab dasturlashtirilgan adabiyot kitobida Alisher Navoiy ijodi nisbatan quyi sinflar ma’lumoti va ilmiylik darajasiga binoan farq qilishi sir emas. Bunda quyi sinf darsliklarida g’azal tahlillari, shoir shaxsiyatiga doir bir qator ma’lumotlar baayon etilgan bo’lsa endi o’quvchilarga asarlarning ilmiylik darajasi va ularning ahamiyati, dunyo hamjamiyatida tutgan o’rni haqida axborotlar tizimini shakllantiradi.

„Har kishining tavig’a loyiq kerak, Sur’ati holig’a muvofiq kerak. Kimki ulug’roq unga xizmat kerak, Ulki kichikroq, anga shafqat kerak, deb ta’lim beradi. Tanosub san’ati asosiga qurilgan quyidagi satrlarni esa har bir farzdand esa o’ziga dasturi amal deb bilishi kerak:

Boshni fido ayla Ato qoshig’a,

Jismni qil sadqa Ano qoshig’a.

Tun- kuningga aylagali nur fosh,

Birsin oy angla birsin quyosh.

Maqolatlardan birini Navoiy elga manfaat yetkazish masalalariga bag’ishlaydi.



Insonning hayoti jamiyatda, odamlar orasida kechadi” [3] deb ta’kidlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Alisher Navoiy ijodiy merosini o’rganish sohasida olib borilyotgan ishlarining amaliy – nazariy salmog’ini yanada oshirish borasida yurtboshimiz SHavkat Miromonovich Mirziyoyev ham salmoqli ishlarni amalga oshirib kelyotgan ekanliklari ahamiyatga molik masalalardan biri xisoblanadi. Muhtaram prezidentimiz o’zining „Yangi O’zbekiston Strategiyasi “ asarining beshinchi bo’limida ma’naviy taraqqiyot, ma’naviy yangilanish, ma’rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi, Ynagi

O’zbekiston va ma’naviy yangilanish sohalarida ilmiy izlanishlar natijasida o’z tasdig’ini topgan ijodiy ishlar bilan birga buyuk bobolonlarimiz ijodiy faoliyatlari bilan yanada yaqindan tanishish va ular orasida Navoiy va Navoiyga o’xshagan bobolarimiz faoliyatlarini yanada chuqurroq o’rganish masalalari ham ilgari surilgan.

„ Atoqli adibimiz Abdulhamid Cho’lponning „Adabiyot yashasa - millat yashaydi”, degan hikmatli so’zlari bugun har qacxhongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.[4]

References:

1. Mirziyoyev, SHavkat Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To’ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: „Ozbekiston” nashryoti, 2022/ 357 – b/ ISBN 978-9943-7951-7-4
2. Adabiyot – Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 7 – sinfi uchun darslik – majmua / Qozoqboy Yo’ldoshev, Begali Qosimov, V. Qodirov, J. Yo’ldoshbekov. – T.: „SHarq”, 2013. – 368/ 168 b.
3. Adabiyot – Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 8- sinf o’quvchilari uchun majmua / Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo’chqorov. G’afur G’ulom nomidagi nashryot matbaa ijodiy uyi, Toshkent.: 2014. – 192 / 102 b.
4. Adabiyot - umumiy o’rta ta’lim maktablarining 9 – sinfi uchun darslik. Qay6ta ishlangan 3- nashri. / Qozoqboy Yo’ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo’doshbekov; [mas’ul muharrirlar: V. Rahmonov, K. Usmanova]. – T.: Yangi yo’l poligraf servis, 2014. – 200/ 63 b.